
Qo'shtepa tumanida keksa faxriy otaxon va onaxonlar ishtirokida uchrashuv o'tkazildi

Qo'shtepa tumani Nuroniy jamg'armasi tomonidan "Hech kim e'tibordan chetda qolmaydi" shiori ostida tashkil etilgan uchrashuvga tuman sektor rahbalari hamda yillar davomida turli sohalarda xizmat qilgan keksa nuroniylar taklif etildi.

Tadbirda tuman hokimi A.Abdullayev nuroniylar eng oliy saodatimiz – mustaqilligimizning bebaho qadri, tinchligimiz va qadriyatlarimizni sadoqat bilan asrab-avaylash haqida so'z yuritdi. Xususan, tumanimizni har sohadagi yanada rivoji yo'lida ko'plab ezgu tadbirlarni kelgusida ham hamjihatlikda davom ettirish kerakligini ta'kidladi.

Tadbir davomida o'tgan ajdodlarimizning porloq xotirasi yod etilib, ularning ruhiga duoyi-xayrlar qilindi. Shuningdek, yurt ravnaqi, hududlar obodligi va barkamol avlod tarbiyasida o'zlarining munosib hissalarini qo'shib kelayotgan bir guruh faol nuroniylarning mehnatlari yana bir bor e'tirof etildi.

Bayram dasturxonida davrasida dildan suhbatlar davom etib, yurt tinchligi, xalq farovonligi va mustaqilligimiz barqaror bo'lishini so'rab, duoga qo'l ochildi.

2024-12-24 19:01:01